



**«50 000 evaziga do'stingni olib kel»
aksiyasini o'tkazish qoidalari**

*"AVO bank" AJ Boshqaruvi majlisining 2025-yil 10 dekabr 25/25-sonli bayonnomasi bilan
tasdiqlangan*

2025-yil 11 dekabrdan kuchga kiradi

“50 000 evaziga do'stingni olib kel” aksiyasini o'tkazish**QOIDALARI****1. Atamalar va ta'riflar**

Aksiya– Sodiqlik dasturi doirasida o'tkaziladigan “50 000 evaziga do'stingni olib kel” aksiyasi bo'lib, Mijozlarning bankka sodiqligini shakllantirish va oshirishga qaratilgan, unda Aksiya Ishtirokchisiga Qoidalarda belgilangan shartlar bajarilganda Bonuslar olish taklif etiladi.

Bank – AVO bank aksiyadorlik jamiyati (“AVO bank” AJ), STIR 207257279, manzil: 100060, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 29A, Aksiya tashkilotchisi hisoblanadi.

Bosh shartnoma – “AVO bank” AJda jismoniy shaxslarga keng qamrovli bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha Bosh shartnoma.

Kartani foydalanish uchun taqdim etish to'g'risidagi Shartnoma — Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan Bank Kartasini chiqarish va unga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma bo'lib, u tegishli Ariza, Tarif rejasi va Bosh shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishning Umumiy shartlarini o'z ichiga oladi.

Do'st – Aksiya Ishtirokchisining tanishi-Taklifnomani qabul qilishi mumkin bo'lgan aloqa telefon raqami egasi.

Bank Mijozi (Mijoz)/ Aksiya Ishtirokchisi – bank bilan bosh shartnoma tuzgan, Bankning Mobil ilovasida Raqamli identifikatsiyadan o'tgan va Bank Kartasini olgan, muomalaga layoqatli jismoniy shaxs.

Umumiy shartlar – “AVO bank” AJning Sodiqlik dasturining umumiy shartlari, Bankning Sodiqlik dasturining shartlarini belgilaydigan hujjat.

Qoidalar – Bank Mijozlarining Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydigan ushbu hujjat.

Taklif – Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Bankka Do'stining telefon raqamini taqdim etish va Do'stiga Bankning Mobil ilovasini yuklab olish uchun havola yuborish.

Sodiqlik dasturi (Dastur) — Bank Mijozlarining sodiqligini saqlab qolish uchun to'lanadigan va/yoki taqdim etiladigan Bonuslarni qo'llash, hisoblash va ulardan foydalanish qoidalar.

Chiqim operatsiyasi – Karta hisobraqami bo'yicha bajarilgan va ko'rsatilgan chiqim Operatsiyasi yoki Bank Tariflariga muvofiq Bank komissiyasi to'lovi.

Qoidalarda bosh harf bilan yozilgan boshqa atamalar Bosh shartnoma va Umumiy shartlar bilan bir xil ma'noga ega.

2. Umumiy qoidalar

- 2.1. Qoidalar Aksiya o'tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatlarini belgilaydi.
- 2.2. Qoidalar Umumiy shartlarning ajralmas qismidir.
- 2.3. Aksiya amaldagi Mijozlarning sodiqlik darajasini oshirish, Bankning yangi Mijozlarini jalb qilish, Bank mahsulotlari va Bankning Mobil ilovalaridan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan.
- 2.4. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi.
- 2.5. Aksiya o'tkazish davri: 2025 – yil 11-dekabrdan boshlab 2026 yil 31-yanvargacha.
- 2.6. Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Qoidalar muvofiq bonuslarni hisoblash nazarda tutilgan shartlarning bajarilishi Aksiya Ishtirokchisining Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz roziligi hisoblanadi.
- 2.7. Aksiyada ishtirok etish bepul.

3. Aksiyaning umumiy qoidalari

- 3.1. Aksiya doirasida Bank Aksiya Ishtirokchisiga Bank tomonidan Aksiya Ishtirokchisining Bonus hisob raqamiga o'tkaziladigan bonuslarni olish imkoniyatini beradi.
- 3.2. Aksiya Ishtirokchisining har bir taklif qilingan Do'sti uchun quyida ko'rsatilgan shartlarni bir vaqtda bajargan taqdirda Bank Aksiya Ishtirokchisiga 50 000 Bonuslar berishga haqli:
 - 3.2.1. Do'stning Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Bank Mobil ilovasi orqali taqdim etilgan telefon raqamiga SMS-xabar ko'rinishida Taklifnoma yuborilgan. Taklifnoma Bank va/yoki Bank Hamkorlarining telekommunikatsion tizimlaridan foydalangan holda yuboriladi;
 - 3.2.2. Taklifnoma yuborilgandan so'ng, Do'st Bank Mobil ilovasida Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Taklifnoma yuborilganda ko'rsatilgan aloqa telefon raqamidan foydalangan holda Bosh shartnomani tuzish orqali ro'yxatdan o'tgan;
 - 3.2.3. Do'st Kartani foydalanishga topshirish to'g'risidagi Shartnomani birinchi marta tuzgan;
 - 3.2.4. Bank Mobil ilovasida Raqamli identifikatsiyadan o'tgan paytdan boshlab 14 (o'n to'rt) kalendar kuni davomida Do'st Kartdan foydalangan holda Chiqim operatsiyasini bajardi;
 - 3.2.5. Aksiya Ishtirokchisida Bank tomonidan taqdim etilgan Kredit Mahsuloti bo'yicha 90 kalendar kunidan oshgan muddati o'tgan qazrdorligi yo'q;

- 3.2.6. Aksiya Ishtirokchisida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan Aksiya Ishtirokchisi Hisobraqamidagi pul mablag'larini tasarruf etish bo'yicha cheklovlari yo'q.
- 3.3. 1 (bir) kalendar oyi uchun 3.2-bandda ko'rsatilgan bonuslarning eng ko'p miqdori 100 000 bonus bo'lishi mumkin.
- 3.4. Boshqa Aksiya Ishtirokchisi tomonidan yuborilgan amaldagi Taklifnomasi yo'q bo'lgan Do'stnigina taklif qilish mumkin.
- 3.5. Qoidalarining 3.2.4. bandidagi shartlarni bajarganda Do'st tomonidan amalga oshirilgan va Karta hisobraqamida aks ettirilgan birinchi Chiqim operatsiyasi summasi Bank tomonidan qayta ishlangandan so'ng Bonus Aksiya Ishtirokchisiga avtomatik tarzda beriladi.
- 3.6. 2000 so'mgacha (shu jumladan) bo'lgan operatsiyalar Chiqim operatsiyalari qatoriga kirmaydi.
- 3.7. Aksiya Ishtirokchisidan Taklifnomani olgan payttan boshlab 3 (uch) kalendar kuni davomida Do'st Qoidalarining 3.2.2-3.2.3 bandlaridagi shartlarni to'liq hajmda bajarmagan taqdirda, Taklifnoma muddati tugaydi. Taklifnoma muddati tugagan taqdirda Do'st o'sha yoki boshqa Aksiya Ishtirokchisidan Taklifnoma olishi mumkin.
- 3.8. Aksiya Ishtirokchisi o'zini Do'st sifatida Aksiyada ishtirok etishga taklif eta olmaydi.
- 3.9. Do'st Taklifnomadan foydalanmagan holda Aksiyada ishtirok etishdan bosh tortishga haqli.
- 3.10. Aksiya Ishtirokchisi Do'stiga Taklifnoma yuborishdan oldin Bank va/yoki Bank Hamkorlariga uning telefon raqamini taqdim etishga va unga yo'naltiruvchi havolali SMS-xabar ko'rinishidagi Taklifnoma yuborilishiga Do'stining roziligini olish majburiyatini oladi. Qonunchilik talablarining buzilishi va Do'stning shunday roziligini olmaslik natijasida yuzaga kelgan salbiy oqibatlar uchun to'liq javobgarlik Aksiya Ishtirokchisi zimmasiga yuklanadi.
- 3.11. Do'st uning telefon raqamiga Taklifnomani yuborishdan bosh tortgan taqdirda, Aksiya Ishtirokchisi Bank va/yoki Bank Hamkorlariga Do'stining aloqa raqamini taqdim etishga haqli emas.
- 3.12. Aksiya Ishtirokchisi Taklifomada o'zining shaxsga doir ma'lumotlarini, shu jumladan ismi, familiyasining birinchi harfi va telefon raqamini Do'stiga taqdim etilishiga rozilik beradi.
- 3.13. Bank Aksiya Ishtirokchisi tomonidan kalendar oyi davomida yuborilayotgan Taklifnomalar miqdorini cheklashga haqli.

4. Boshqa shartlar

- 4.1. Aksiyada ishtirok etish orqali Mijoz, agar ushbu Aksiya shartlari va "Do'stingni olib kel" aksiyasi shartlari bir vaqtda bajarilsa, Mijoz faqat ushbu Aksiya doirasida Bonuslarni olishiga va "Do'stingni olib kel" aksiyasi bo'yicha bonuslar berilmasligiga roziligini bildiradi.
- 4.2. Bonuslarni hisoblash limiti va muddatlari Umumiy shartlar bilan belgilanadi va tartibga solinadi. Qoidalar Bank Saytida joylashtiriladi.
- 4.3. Bank istalgan vaqtda Aksiyani muddatidan oldin tugatish, shu jumladan ilgari yuborilgan Taklifnomalar, shuningdek Qoidalarni bir tomonlama to'ldirish va/yoki o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. O'zgarishlar Aksiyaning barcha shartlari va qoidalariga, shu jumladan Taklifnoma jarayonida amalda bo'lganlarga nisbatan kuchga kiradi. Qoidalariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar Bosh shartnomada nazarda tutilgan usullar bilan joylashtiriladi.
- 4.4. Quyidagi holatlarda Bank Aksiya Ishtirokchisi va/yoki Do'stni xabardor qilmasdan va sababini tushuntirmasdan Aksiya davomida hisoblangan Bonuslarni bermaslik/bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi:
 - 4.4.1. Aksiyada bir xil shaxslar tomonidan takroriy qayta ishtirok etish holatlari aniqlangan taqdirda, va/yoki
 - 4.4.2. Qoidalarda va/yoki Umumiy shartlarda nazarda tutilmagan usullardan foydalangan holda Bonuslarni hisoblash shartlari bajarilgan taqdirda, va/yoki
 - 4.4.3. Bank Aksiya Ishtirokchisi va/yoki Do'stining xatti-harakatlarini/harakatsizligini firibgarlik, vijdonsizlik va boshqa yo'l bilan qonunchilikni va/yoki Aksiyada ishtirok etish shartlarini buzadigan deb topsa, va/yoki
 - 4.4.4. Bonuslarni hisoblashdan oldin Bank Aksiya Ishtirokchisi yoki Do'stning Kartani yopish to'g'risidagi Arizasini olsa, va/yoki
 - 4.4.5. Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Internet tarmog'i, bloggerlar akkautlarida, Instagram.com ijtimoiy tarmog'ida, Youtube.com ijtimoiy tarmog'ida va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda reklama-axborot materiallarini joylashtirish bo'yicha xizmat ko'rsatish amalga oshirilsa, va/yoki
 - 4.4.6. Agar Aksiya Ishtirokchisi Bank nazarida yetarlicha faollik ko'rsatmasa va/yoki Bosh shartnoma va/yoki Qoidalariga muvofiq Bank mahsulotlaridan foydalanish shartlarida nazarda tutilgan zarur harakatlarni bajarmasa.
- 4.5. Bank Aksiya Ishtirokchisi va/yoki Do'stining Aksiyada ishtirok etishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlar, xarajatlar va boshqa xarajatlarini qoplamaydi yoki kompensatsiya qilmaydi.

- 4.6. Aksiya shartlari kollegial boshqaruv organlari a'zolariga va Bankning boshqa xodimlariga ularning xizmat mavqiedan foydalangan holda shaxsiy ustunlik berishni yoki bunday imtiyozni uchinchi shaxslarga, Aksiyaning boshqa Ishtirokchilariga nisbatan berish uchun foydalanishni nazarda tutmaydi.
- 4.7. Aksiya doirasida beriladigan Bonuslar Bank bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan Ishtirokchiga mukofot sifatida, lavozim majburiyatlarini bajarganlik uchun, taqdim etilgan tovarlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov (mukofot) sifatida yoki moddiy yordam sifatida to'lanmaydi.
- 4.8. Aksiya lotereya, o'yin xavfiga asoslangan tadbir, pul tikish emas.
- 4.9. Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha nizolar va kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda sudda ko'rib chiqilishi lozim.
- 4.10. Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi asosida tartibga solinadi.
- 4.11. Aksiyada ishtirok etgan Ishtirokchi va Do'st Qoidalarni bilishi va ularga rioya qilishi shart.